

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “2024-YIL UCHUN O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASINING DAVLAT BUDJETI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI IJROSINI  
TA‘MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi **Qonuni** ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2024-yilda ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq;

2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq;

2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari prognozi **3-ilovaga** muvofiq;

2024-yilda foyda solig‘i to‘liqligicha O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo‘naltiriladigan yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxati **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagi soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida quyidagi miqdorlarda qoldirilsin:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘liq hajmda;

foyda solig‘i to‘liq hajmda (mazkur qarorga **4-ilovada** ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘i bundan mustasno);

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 100 foizi, qolgan hududlarda esa 60 foizi (mazkur qarorga **4-ilovada** ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno).

Bunda soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini hisoblashda yirik soliq to‘lovchilardan tushumlar (mazkur qarorga **4-ilovada** ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan foyda va qo‘shilgan qiymat soliqlari bundan mustasno) hududlar kesimida inobatga olinadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga narxlar (tariflar) va qonunchilik hujjatlari o‘zgarishidan kelib chiqib, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha daromadlar prognozini tasdiqlangan ko‘rsatkichlar doirasida hududlar kesimida qayta taqsimlash huquqi berilsin.

Belgilansinki, 2023-yil IV chorak yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetiga daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini o‘tkazish 2024-yil yanvar oyida amalga oshiriladi va 2023-yilgi hisobotlarda aks ettiriladi.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2024-yilda ijtimoiy soliq tushumlari bo‘yicha 2023-yilda amal qilgan taqsimlash me‘yorlari saqlab qolinadi.

4. 2024-yil uchun quyidagi soliq stavkalari:

a) “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda foyda solig‘i bo‘yicha **5-ilovaga** muvofiq;

b) yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha quyidagi miqdorlarda:

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun oltin bo‘yicha — 10 foiz va palladiy, kumush, mis bo‘yicha — 15 foiz;

“Navoiyuran” DK uchun uran bo‘yicha — 16 foiz;

“O‘zbekneftgaz” AJ uchun neft, tabiiy gaz va gaz kondensati bo‘yicha — 15 foiz;

v) oltindan yasalgan zargarlik buyumlarini chakana savdoda sotganlik uchun yig'im 1 grammiga 1 000 so'm miqdorida tasdiqlansin.

Bunda, mazkur bandning "b" kichik bandi **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan soliq stavkalari barcha litsenziyalangan yer qa'ri uchastkalariga nisbatan qo'llaniladi.

5. Belgilansinki, 2024-yilda uy-joy fondining ko'chmas mulk obyektlariga, shuningdek, ular egallab turgan yer uchastkalariga nisbatan:

2018-yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi, 2023-yil uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yer solig'i summasi 2023-yilda hisoblab chiqarilgan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozim.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Belgilab qo'yilsinki, ko'chmas mulk qiymatini baholovchi tashkilotni jalb qilgan holda mustaqil baholashni o'tkazgan va baholash hisobotini soliq organlariga taqdim etgan soliq to'lovchilarning tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari 2024-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bazasi sifatida e'tirof etiladi.

*(5-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-iyundagi PF-84-sonli Farmoniga asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2024-y., 06/24/84/0400-son)*

6. Qishloq xo'jaligi vazirligi 2024-yil 1-aprelga qadar "O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti, Soliq qo'mitasi va Statistika agentligi bilan birgalikda qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan dehqon xo'jaliklariga yer solig'ini hisoblash uchun ushbu yerlarning normativ qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazsin.

7. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalariga majburiy yig'imlar, bojlar va jarimalar hisobidan kelib tushgan mablag'larning hamda mazkur jamg'armalarning bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlarning 40 foizini Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida avtomatik tarzda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o'tkazsin.

8. Belgilansinki, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralari tomonidan undiriladigan ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig'imlar, to'lovlar, jarimalar va ajratmalar **6-ilovaga** muvofiq taqsimlanadi.

Vazirliklar va idoralar bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu banddan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

9. Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024 — 2026-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki:

vazirliklar va idoralar rahbarlari budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi;

vazirliklar va idoralar maqsadli indikatorlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni hisobot choragidan keyingi oynning yigirmanchi sanasiga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etadi hamda yigirma beshinchi sanasiga qadar o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib boradi;

har chorak yakuni bo'yicha har bir vazirlik va idoraning maqsadli indikator ko'rsatkichlari bajarilishi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida tizimli va tanqidiy tahlil qilinadi. Bunda, vazirliklar va idoralarning maqsadli indikator ko'rsatkichlari bajarilishida sustkashlik va mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan tegishli vazirlik va idora rahbarlariga ta'sirchan choralar ko'riladi;

tasdiqlangan budjet parametrlariga o'zgartirish kiritilgan taqdirda vazirliklar va idoralar maqsadli indikator ko'rsatkichlarini mablag'larning aniqlashtirilgan miqdoriga mutanosib ravishda

o'zgartiradi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) Qonunchilik palatasiga taqdim etiladigan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot turlarini kengaytirish;

b) Qonunchilik palatasi qo'mitalarida:

har olti oyda birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet mablag'laridan foydalanishi bilan bog'liq maqsadli indikatorlari bajarilishi yuzasidan vazirliklar va idoralar rahbarlarining hisobotlarini;

har chorak yakunida Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Davlat budjeti daromadlari prognozi bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarini eshitib borish;

v) Hisob palatasi tomonidan hisobot yili yakuni bo'yicha birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet mablag'laridan foydalanishi bilan bog'liq maqsadli indikatorlari bajarilishini auditdan o'tkazish.

11. Belgilab qo'yilsinki:

avval qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va Hukumat topshiriqlariga asosan ayrim xarajatlarni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilash amaliyoti (jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan qismi bundan mustasno) bekor qilinadi;

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'armalar hisobidan to'lanishi belgilangan kompensatsiya to'lovlaridan qarzдорlik yoki (va) mahalliy budjetlarning O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti oldida budjet ssudalari bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik qoplanmasdan tegishli mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari mablag'larini boshqa maqsadlarga yo'naltirish taqiqlanadi.

12. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining respublika mulkida bo'lgan ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, jumladan tijorat banklarining (mahalliy hokimiyat organlari muassisligidagi jamiyatlardan tashqari) ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalarni kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bir oy muddatda mazkur bandeda nazarda tutilgan tartibni respublika mulkida bo'lgan ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, jumladan tijorat banklarining (mahalliy hokimiyat organlari muassisligidagi jamiyatlardan tashqari) ustaviga kiritish choralarini ko'rsin.

13. Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda 2024-yil uchun budjet siyosati konsepsiyasida belgilangan yo'nalishlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, xarajatlar samaradorligini oshirish hamda budjet intizomiga rioya qilish yuzasidan "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlasin.

14. Ijtimoiy himoya milliy agentligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda tug'ilganlikni qayd etish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatish hamda farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa pulini to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

15. Iqtisodiyot va moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga [8-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari [9-ilovaga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

18. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

19. Belgilansinki, ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2023-yil 29-dekabr,  
PQ-422-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga  
1-ILOVA

**2024-yilda ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlari**

*mln so'm*

<b>T/r</b>	<b>Budjet mablag'lari taqsimlovchilarining nomi</b>	<b>Summa</b>
<b>1.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi</b>	<b>1 822 859,2</b>
	<i>shundan ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar mablag'lari:</i>	
2.1.	O'zbekiston Futbol federatsiyasi	31 050,3
2.2.	O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi	250 000,0
2.3.	O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi	41 000,0
<b>2.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi</b>	<b>2 027 346,8</b>
	<i>shundan ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar mablag'lari:</i>	
2.1.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi	4 484,3
2.2.	"Nurli yol" va "Ovozi tojik" gazetalari tahririyatlari	4 143,3
2.3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi	17 829,1
2.4.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi	12 066,6
2.5.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi	5 000,0
2.6.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi	2 977,0
<b>3.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi</b>	<b>1 599 699,2</b>
	<i>shundan ikkinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar mablag'lari:</i>	
3.1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi	32 069,8
3.2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi	33 745,9
3.3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti	45 371,8
3.4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi	208 836,0
3.5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi	33 345,6
3.6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi	181 502,4

3.7.	O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi	34 900,0
<b>4.</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi</b>	<b>175 877,0</b>
	<i>shundan ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar mablag‘lari:</i>	
4.1.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti	12 888,0
<b>5.</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi</b>	<b>2 112 243,3</b>
	<i>shundan ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar mablag‘lari:</i>	
5.1.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi	590 987,0
	<i>shundan obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar</i>	67 662,0
5.2.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti	266 487,6

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga  
2-ILOVA

**2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari**

*mln so‘m*

<b>Budjetlar nomi</b>	<b>Aylanma kassa mablag‘lari</b>
O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	2 000 000,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti	31 000,0
Andijon viloyatining mahalliy budjeti	24 000,0
Buxoro viloyatining mahalliy budjeti	27 000,0
Jizzax viloyatining mahalliy budjeti	14 500,0
Qashqadaryo viloyatining mahalliy budjeti	25 000,0
Navoiy viloyatining mahalliy budjeti	13 500,0
Namangan viloyatining mahalliy budjeti	21 500,0
Samarqand viloyatining mahalliy budjeti	40 000,0
Surxondaryo viloyatining mahalliy budjeti	19 000,0
Sirdaryo viloyatining mahalliy budjeti	13 000,0
Toshkent viloyatining mahalliy budjeti	35 500,0
Farg‘ona viloyatining mahalliy budjeti	30 000,0
Xorazm viloyatining mahalliy budjeti	19 500,0
Toshkent shahrining mahalliy budjeti	38 000,0

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga  
3-ILOVA

**2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari prognozi**

*mlrd so‘m*

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Summa</b>
	<b>Jami daromadlar</b>	<b>270 703,1</b>
<b>1.</b>	<b>Bevosita soliqlar</b>	<b>85 610,9</b>
1.1	Foyda solig‘i	44 282,7
	<i>shu jumladan:</i>	
	<i>“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati</i>	13 803,4

	<i>“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati</i>	4 473,0
1.2	Aylanmadan olinadigan soliq	2 851,1
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	38 477,0
<b>2.</b>	<b>Bilvosita soliqlar</b>	<b>111 654,5</b>
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	74 045,7
2.2	Aksiz solig‘i	22 769,2
2.3	Bojxona boji	14 839,6
<b>3.</b>	<b>Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i</b>	<b>31 831,3</b>
3.1	Mol-mulk solig‘i	6 715,0
3.2	Yer solig‘i	7 171,1
3.3	Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	16 684,2
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 261,1
<b>4.</b>	<b>Dividendlar</b>	<b>23 755,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
	<i>“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati</i>	11 797,5
	<i>“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati</i>	6 787,6
<b>5.</b>	<b>Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar</b>	<b>17 851,4</b>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga  
4-ILOVA

**Foyda solig‘i to‘liqligicha O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga  
yo‘naltiriladigan yirik soliq to‘lovchilar**

RO‘YXATI

T/r	Soliq to‘lovchilarning nomi	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)
1.	“Andijon gidroelektrstansiya” UK	200248365
2.	“Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ	200595949
3.	“Asia trans gas” MChJ	206948470
4.	“Baraka holding” MChJ	305162024
5.	“Bekobodsement” AJ	200459808
6.	“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MChJ	202080378
7.	“Chirchiq gidroelektrstansiyalar kaskadi” UK	200942018
8.	“Chirchiq transformator zavodi” AJ	200941525
9.	“Coca-cola ichimligi Uzbekiston, Ltd” MChJ	200798458
10.	“Coscom” MChJ	201788904
11.	“Epsilon development company” MChJ	305922787
12.	“Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ	200202099
13.	“Farg‘onaazot” AJ	200202240
14.	“Farhod GES” UK	202256591
15.	“Gissarneftgaz” MChJ	205678302
16.	“Nisorak gidroelektrstansiya” UK	206976058
17.	“International beverages Tashkent” MChJ	301975029
18.	“Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti” MChJ	200640719
19.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	306349304
20.	“Ketring” MChJ	201676062
21.	“Ko‘kdumaloqgaz” MChJ	205222807
22.	“Maksam-Chirchiq” AJ	200941518

23.	“Petromaruz Uzbekistan” MChJ	204917978
24.	“Natural gas-stream” MChJ	207245357
25.	“Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” AJ	310622519
26.	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	308425864
27.	“Navoiyuran” DK	201204514
28.	“Navoiy xalqaro aeroporti” MChJ	200003243
29.	“Navoiyazot” AJ	200002933
30.	“O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ	203607858
31.	“Ohangaronsement” AJ	200463344
32.	“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	202328794
33.	“O‘zaeronavigatsiya”markazi” DUK	201052000
34.	“O‘zavtosanoat” AJ	201053918
35.	“Katta Farg‘ona kanalidagi kichik gidroelektrostansiyalar kaskadi” UK	305909492
36.	“O‘rta Shirchiq gidroelektrostansiyalari kaskadi” UK	200439436
37.	“Ohangaron gidroelektrostansiya” UK	301266689
38.	“Tuyamo‘yin gidroelektrostansiyasi” UK	200209151
39.	“Qodiriya gidroelektrostansiyalar kaskadi” UK	200605332
40.	“O‘zbekgidroenergo” AJ	304952767
41.	“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ	200460222
42.	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	306347741
43.	“O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi” AJ	200933985
44.	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	201051951
45.	“O‘zbekneftgaz” AJ	200837914
46.	“O‘zbektelekom” AJ	203366731
47.	“O‘zelektroapparat-electroshield” AJ	201052167
48.	“O‘ztransgaz” AJ	200626188
49.	“Qizilqumsement” AJ	200002878
50.	“Quvasoycement” AJ	200124805
51.	“Quyibo‘zsuv gidroelektrostansiyalar kaskadi” UK	200588275
52.	“Rubicon wireless communication” MChJ	201501439
53.	“Samarqand avtomobil zavodi” MChJ QK	202137344
54.	“Samarqand gidroelektrostansiyalari kaskadi” UK	205240509
55.	“Samarqand xalqaro aeroporti” MChJ	200791776
56.	“Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJ	203195074
57.	“Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasi” AJ	310624602
58.	“Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi” AJ	201284979
59.	“Tashkent tobacco” MChJ	205442074
60.	“To‘palang gidroelektrostantsiya” UK	206695638
61.	“Toshkent gidroelektrostansiyalari kaskadi” UK	200796373
62.	“Toshkent issiqlik elektr stansiya” AJ	310624412
63.	“Toshkentvino kombinati” AJ	200547634
64.	“Unitel” MChJ	201838002
65.	“Universal mobile systems” MChJ	303020732
66.	“Uzauto motors” AJ	200244767
67.	“Uzauto trailer” MChJ	302320834
68.	“Uzbat” AJ	200987017
69.	“Uz truck and bus motors” MChJ	301305243
70.	“Uzbekistan airways” AJ	306628114

71.	“Uzbekistan airways technics” MChJ	200640797
72.	“Uzbekistan GTL” MChJ	207041936
73.	“VL Galperin nomidagi Toshkent truba zavodi” MChJ	200897524
74.	“Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi” AJ	200595838
75.	“Sanoat energetika guruhi” MChJ XK	304936120
76.	“Nududgazta’minot” AJ	306605769
77.	“Uzgastrade” MChJ	309702449
78.	“Uzbekistan airports” AJ	306646884
79.	“O‘ztransgaz AJning Urganchtransgaz” UK	200407848
80.	“Nududiy elektr tarmoqlari” AJ	306350099
	35 ta tijorat banklari	

Izoh: ro‘yxatda qayd etilgan korxonalar boshqa korxonalar tarkibiga kirganda va boshqa korxonalar bilan birlashganda yoki qayta tashkil etilgan holatlarda ushbu ro‘yxatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga  
5-ILOVA

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ  
uchun foyda solig‘i stavkalari**

T/r	Soliq solish obyekti	Soliq stavkasi, foizda
1.	Soliq solish bazasining, tovar (xizmat) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning 15 foiziga teng miqdordagi qismiga	15
2.	Soliq solish bazasining qolgan qismiga	50

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga  
6-ILOVA

**Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralari tomonidan undiriladigan  
ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig‘imlar, to‘lovlar, jarimalar va ajratmalar**

**TAQSIMOTI**

T/r	Foiz	Mablag‘ yo‘naltirilishi	Normativ- huquqiy hujjat*
<b>1.</b>		<b>Yer qa‘ridan foydalanish sohasida belgilangan talablarni buzganlik uchun undiriladigan jarimalar</b>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4078-son qarori
a.	50 foizi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	50 foizi	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi rivojlantirish jamg‘armasi	
<b>2.</b>		<b>Tashqi reklama obyektni o‘rnatishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar</b>	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustda 428-son qarori
2.1.		Tashqi reklama obyektni o‘rnatishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar bo‘yicha:	
		Toshkent shahrida:	
a.	40 foizi	Toshkent shahar mahalliy budjetiga	
b.	20 foizi	Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamentining budjetdan tashqari g‘azna hisobvarag‘iga	
v.	10 foizi	O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko‘maklashish	

		jamg'armasiga, shundan jami yig'im summasining 5 foizi — uning huzuridagi "Raqamli transformatsiya va outsorsing markazi" davlat unitar korxonasiga	
g.	10 foizi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga	
d.	20 foizi	Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Toshkent shahrini rivojlantirish jamg'armasiga	
Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda:			
a.	75 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar mahalliy budjetiga, shundan jami yig'im summasining 10 foizi — Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining budjetdan tashqari jamg'armalariga	
b.	15 foizi	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga, shundan jami yig'im summasining 5 foizi — uning huzuridagi "Raqamli transformatsiya va outsorsing markazi" davlat unitar korxonasiga	
v.	10 foizi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga	
Avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida:			
a.	30 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetiga, shundan jami yig'im summasining 10 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining budjetdan tashqari jamg'armalariga hamda 5 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalari maxsus jamg'armalariga	
b.	5 foizi	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga	
v.	60 foizi	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasini rivojlantirish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga	
g.	5 foizi	Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamentining budjetdan tashqari g'azna hisobvarag'iga	
2.2.	Transport vositalarida joylashtiriladigan tashqi reklamadon tushadigan mablag'lar (yo'nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) bo'yicha:		
a.	65 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetiga, shundan jami yig'im summasining 10 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining budjetdan tashqari jamg'armalariga hamda 5 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalari maxsus jamg'armalariga	
b.	25 foizi	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga	

v.	5 foizi	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasiga	
g.	5 foizi	Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamentining budjetdan tashqari g'azna hisobvarag'iga	
<b>3.</b>	<b>Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4086-son qarori
a.	14 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	35 foizi	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'i	
v.	1 foizi**	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Ilmiy-innovatsion rivojlantirish jamg'armasi	
g.	2 foizi**	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi huzuridagi Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi — axborot-resurs markazi	
d.	qolgan qismi	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi (axborotlashtirish va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirish uchun maqsadli foydalanish sharti bilan)	
<b>4.</b>	<b>Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ixtisoslashgan pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushumlarning ularni amalga oshirishga ketgan jami xarajatlar qoplangandan keyin qoladigan summasi</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyuldagi PQ-4790-son qarori
a.	5 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	10 foizi	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi maxsus jamg'armasi	
v.	85 foizi	Tegishli idoraviy mansub tashkilotlar	
<b>5.</b>	<b>Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun undiriladigan yig'imning Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasiga o'tkaziladigan qismi (10 foiz)</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son qarori
a.	50 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	50 foizi	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasi	
<b>6.</b>	<b>Sug'oriladigan yerlar, lalmi yerlar, sug'oriladigan va lalmi bo'z yerlar, pichanzorlar va yaylovlar uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rnini qoplash bo'yicha to'lanadigan kompensatsiya to'lovi</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-
a.	95 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	

b.	5 foizi	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamg'armasi	4819-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 146-son qarori
<b>7.</b>	<b>Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilganligi uchun moliyaviy va ma'muriy jarimalar</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-son qarori
a.	50 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	50 foizi	O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining maxsus jamg'armasi	
<b>8.</b>	<b>Ko'chma savdo joyi (xususiy mulkdorlarga tegishli joylardan tashqari) ko'chma savdo obyektlarining joylashish sxemalari bo'yicha "K-SAVDO" AAT orqali elektron aukcion orqali sotishdan kelib tushadigan pul mablag'lari</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-iyundagi PQ-5136-son qarori
a.	90 foizi	Tegishli tuman (shahar) mahalliy budjetlari	
b.	10 foizi	Soliq qo'mitasining maxsus hisob raqami	
<b>9.</b>	<b>Atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori
a.	40 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	60 foizi	Ekologiya, atrof-muhitni muhoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi	
<b>10.</b>	<b>Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilishida aybdor bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardan ma'muriy va sud tartibida undiriladigan jarimalar va pul mablag'lari</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori
a.	13 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	87 foizi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi	
<b>11.</b>	<b>Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish bilan bog'liq qonun buzilishlari uchun undiriladigan jarimalar va pul mablag'lari</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori
a.	13 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	87 foizi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi	
<b>12.</b>	<b>Musodara qilingan ov va baliq ovlash qurollari, noqonuniy ov qilish va baliq ovlash natijasida olib qo'yilgan mahsulotlar hamda o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanishdan olingan mahsulotlar uchun undiriladigan jarimalar va pul mablag'lari</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori
a.	13 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	87 foizi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi	
<b>13.</b>	<b>Yovvoyi hayvonlarni ovlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitdan olish uchun ruxsatnoma uchun to'lovlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-

a.	40 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	maydagi PQ-171-son qarori
b.	60 foizi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi	
<b>14.</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining kirganligi va tranzit o‘tishi uchun yig‘im</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-apreldagi 62-son qarori
a.	75 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	25 foizi	Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	
<b>15.</b>	<b>Tegishli ruxsatnomasiz og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli yuklarni tashish va yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o‘lchamlari belgilangan normalardan ortiq bo‘lgan transport vositalarida yo‘lga chiqish uchun undiriladigan jarimalar summasi</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-apreldagi 62-son qarori
a.	10 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	80 foizi	Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi	
v.	10 foizi	Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasi	
<b>16.</b>	<b>Avtomobil va temir yo‘l transportida yo‘lovchilar va yuk tashish huquqini beruvchi litsenziyalarni olish uchun berilgan arizalar ko‘rib chiqilganligi, shuningdek, avtomobilda yo‘lovchilar va yukni xalqaro tashishni amalga oshirish uchun ruxsatnomalar blankalari berilganligi uchun yig‘imlar</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-apreldagi 62-son qarori
a.	40 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	60 foizi	Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasi	
<b>17.</b>	<b>“O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” Davlat muassasasining yalpi foydasidan ajratma</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-oktabrdagi 342-son qarori
a.	5 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	15 foizi	O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining maxsus jamg‘armasi	
v.	80 foizi	“O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” Davlat muassasasi	
<b>18.</b>	<b>Soliq organlari tomonidan o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvi natijasida qo‘shimcha undirilgan summalar bo‘yicha penyalar hamda soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo‘llanilgan moliyaviy jazo choralari, tegishli ma‘muriy huquqbuzarlik uchun qo‘llaniladigan jarimalar***</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-apreldagi 62-son qarori
a.	80 foizi	Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi tomonidan undirilganda O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetiga; boshqa soliq idoralari tomonidan undirilganda, tegishli ravishda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga	
b.	20 foizi	Soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi	
<b>19.</b>	<b>Soliq xizmati organlari tomonidan tegishli ma‘muriy huquqbuzarlik uchun qo‘llaniladigan jarimalar summasi</b>		O‘zbekiston Respublikasi

a.	80 foizi	Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi tomonidan undirilganda O'zbekiston Respublikasi respublika budjetiga; boshqa soliq idoralari tomonidan undirilganda, tegishli ravishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-oktabrdagi 811-son qarori
b.	20 foizi	Soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi	
<b>20.</b>	<b>Ko'rsatilgan xizmatlar uchun bojxona yig'implari va to'lovlar shaklidagi tushumlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-apreldagi 62-son qarori
a.	75 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	3 foizi	Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi	
v.	22 foizi	Bojxona qo'mitasining budjetdan tashqari jamg'armasi	
<b>21.</b>	<b>Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini "E-auksion" elektron savdo platformasida realizatsiya qilishdan olinadigan pul mablag'lari</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-son qarori
a.	30 foizi	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi budjetdan tashqari jamg'armasi ****	
b.	70 foizi	Tegishli tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari	
<b>22.</b>	<b>Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma muddatini uzaytirishdan olinadigan to'lov summasi</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-son qarori
a.	30 foizi	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi budjetdan tashqari jamg'armasi	
b.	70 foizi	Tegishli tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari	
<b>23.</b>	<b>Sanoat va energetika tashkilotlariga texnik suv yetkazib berish xizmatidan kelib tushadigan mablag'lar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-dekabrda 1008-son qarori
a.	30 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	60 foizi	Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi	
v.	10 foizi	Tegishli suv xo'jaligi tashkilotlari	
<b>24.</b>	<b>O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimidagi sertifikatlashtirish organiga mahsuloti sertifikatlashtirilgan import qiluvchi va mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan kelib tushayotgan muvofiq belgisidan foydalanganlik uchun bir martalik to'lov</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi 348-son qarori
a.	45 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	45 foizi	O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining maxsus jamg'armasi	
v.	10 foizi	Sertifikatlashtirish organi	
<b>25.</b>	<b>O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimidagi "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat korxonasi tomonidan har chorak yakuni bo'yicha akkreditatsiya belgisi qo'llanganlik uchun tushadigan mablag'lar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

a.	25 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	2019-yil 24-apreldagi 348-son qarori
b.	25 foizi	O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining maxsus jamg‘armasi	
v.	50 foizi	“O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat korxonasi	
<b>26.</b>	<b>Davlat o‘rmon fondi uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-dekabrda 993-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori
a.	30 foizi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	70 foizi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ekologiya jamg‘armasi	
<b>27.</b>	<b>Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha malaka sertifikatini olish uchun yig‘im</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-fevraldagi 73-son qarori
a.	20 foizi	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	68,25 foizi	Bilim va malakalarni baholash agentligi faoliyatini rivojlantirish jamg‘armasi hisobvarag‘iga jamg‘armasi	
v.	11,25 foizi	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘i	
g.	0,5 foizi	Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘i	
<b>28.</b>	<b>Traktorlar, traktor tirkamalari, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalari, o‘ziyurar mashinalar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish, davlat raqam belgilari, texnik pasportlar va guvohnomalar berish uchun yig‘imlar</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-son qarori
a.	30 foizi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	70 foizi	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi budjetdan tashqari jamg‘armasi	
<b>29.</b>	<b>“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” davlat muassasasi tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlardan tushadigan tushumlar</b>		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-son qarori
a.	9 foizi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	21 foizi	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi budjetdan tashqari jamg‘armasi	
v.	70 foizi	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” davlat unitar korxonasi	
<b>30.</b>	<b>Davlat chegarasi va transportda davlat veterinariya nazorati boshqarmasining hamda Veterinariya dori vositalari, ozuqabop</b>		O‘zbekiston Respublikasi

	<b>qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha Davlat ilmiy markazining xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar</b>		Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 532-son qarori
a.	40 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	35 foizi	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi budjetdan tashqari jamg'armasi	
v.	25 foizi	Tegishli xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	
31.	<b>O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan import va tranzit karantin ruxsatnomalari, xalqaro, ichki va reeksport fitosanitariya sertifikatlari, transport birligini ochish va karantin ko'rigi dalolatnomasi rasmiylashtirilishidan olinadigan to'lovlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 311-son qarori
a.	30 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	70 foizi	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi budjetdan tashqari jamg'armasi	
32.	<b>O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan ko'rsatilgan laboratoriya tahlillari xizmati uchun olinadigan to'lovlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 311-son qarori
a.	30 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	70 foizi	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi budjetdan tashqari jamg'armasi	
33.	<b>O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan zararsizlantirish (fumigatsiya) ishlari o'tkazish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan to'lovlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 311-son qarori
a.	30 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	70 foizi	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi budjetdan tashqari jamg'armasi	
34.	<b>O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan kimyoviy va biologik himoya vositalarining biologik samaradorligi bo'yicha o'tkaziladigan sinovlar uchun olinadigan to'lovlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 311-son qarori
a.	30 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	70 foizi	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi budjetdan tashqari jamg'armasi	
35.	<b>Oliy ta'lim muassasalarining to'lov-kontrakt (shu jumladan, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt) shaklida o'qitishdan tushadigan mablag'larining mazkur mablag'lar bo'yicha moliya yili oxiriga qoldiq (tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar ham inobatga olingan holda) qismining 4 foizi miqdoridagi ajratmalar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-fevraldagi 172-son qarori
a.	50 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	50 foizi	Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi	
36.	<b>Davlat aktivlarini sotishdan va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat aktivlarini bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotishdan tushadigan tushumlar*****</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi 404-son qarori
a.	92 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	5 foizi	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg'armasi	
v.	3 foizi	Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	

<b>37.</b>	<b>Davlat qurilish nazorati amalga oshirilishi shart bo'lgan barcha obyektlar bo'yicha qurilish-montaj ishlari qiymatining 0,2 foiziga teng yagona miqdordagi ajratmalar</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoni
a.	10 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	5 foizi	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	
v.	5 foizi	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi budjetdan tashqari jamg'armasi	
g.	80 foizi	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy organlari ixtiyorida qoldiriladi	
<b>38.</b>	<b>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi va uning hududiy inspeksiyalari tomonidan o'z vakolatlari doirasida shaharsozlikka oid qonunchilik talablarini buzganlik uchun aybdor shaxslardan undiriladigan jarimalar</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoni
a.	30 foizi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari	
b.	70 foizi	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	
<b>39.</b>	<b>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi va muassisligidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati, ko'rsatadigan xizmatlari va bajaradigan ishlaridan olinadigan foydasi bo'yicha ajratmalar</b>		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoni
a.	15 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	10 foizi	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	
v.	75 foizi	Tegishli xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	
<b>40.</b>	<b>Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash bo'yicha arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'imlar</b>		O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori
a.	20 foizi	O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti	
b.	58,25 foizi	Tegishli litsenziyalovchi organning hisobvarag'i	
	Xalqaro hamkorlik hamda mamlakat tashqi siyosati, iqtisodi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha tayyorlanadigan axborot-tahliliy hujjatlar soni
<b>18.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> O'zbekiston Respublikasining investitsiya salohiyatini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya kiritish jarayonining raqobatbardosh eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish
	<b>shundan:</b> <i>rivojlantirish dasturlariga ajratilgan mablag'</i>
<b>18.1.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish dasturi ( <i>PQ-4069-son, 20.12.2018-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Mahalliy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni jahon bozoriga eksport qilishda ko'maklashish uchun har tomonlama ko'mak ko'rsatish
	<b><i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i></b>

	Moliyaviy qo'llab-quvvatlangan mahalliy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Standartlarni joriy qilish va muvofiqlik sertifikatlarini olish bo'yicha moliyaviy yordam ajratish (sertifikatlar soni bo'yicha)
	Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etishi uchun moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatilgan mahalliy tadbirkorlar soni
	Mahalliy mahsulotlar va brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqish maqsadida taqdimotlar va reklama kampaniyalari o'tkazish, shuningdek mahsulot va xizmatlarni xalqaro elektron savdo maydonchalariga a'zo bo'lish bo'yicha moliyaviy yordam ajratilgan murojaatlar soni
	Vakolatli organlarning meva-sabzavotlar, to'qimachilik mahsulotlari va buyumlarini eksport qilish uchun zarur bo'lgan ruxsatnoma va sertifikatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish (har bitta rasmiylashtirilgan sertifikat soni)
	Respublikada hamda xorijda mahalliy va xorijiy kompaniyalarni, mutaxassislarni jalb qilgan holda tashkil etilgan biznes-seminarlar, treninglar, savdo missiyalari va biznes-forumlarda ishtirok etgan tadbirkorlar soni
<b>18.2.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Eksport qilishda transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish dasturi (PQ-4337-son, 25.05.2019-y.)
	<b>Dastur maqsadi:</b> Mahalliy eksport qiluvchi korxonalar (ularning vakolatli vakillari)ga avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashish xarajatlarini 50 foizigacha miqdorda kompensatsiya qilish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashish xarajatlari uchun kompensatsiya taqdim etilgan mahalliy eksport qiluvchi korxonalarining eksport hajmi
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashish xarajatlari uchun kompensatsiya taqdim etilgan mahalliy eksport qiluvchi korxonalarining soni
<b>18.3.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urta mukofotini to'lash bo'yicha xarajatlarni kompensatsiya qilish dasturi (PQ-4707-son, 07.05.2020-y.)
	<b>Dastur maqsadi:</b> Eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarini kompensatsiya qilish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, eksport qilingan tovar va xizmatlar hajmi
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, eksport qiluvchi korxonalar soni
<b>18.4.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Etalonlar va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini xarid qilish dasturi
	<b>Dastur maqsadi:</b> O'zbekiston Respublikasi etalonlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish orali respublikada bajarilgan o'lchash natijalarining xalqaro birliklar tizimining birliklariga qadar metrologik kuzatiluvchanligini ta'minlash, mahalliy mahsulotlarni chet elga yetkazib berishda o'lchash va sinash natijalarining tan olinishiga erishish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Davlat metrologiya xizmati organlarida qo'llanadigan o'lchash texnikasi umumiy miqdoridagi zamonaviy o'lchash texnikasi ulushini oshirish
	Kalibr lash ishlari hajmining qiyoslash ishlariga nisbatan oshishi (jami o'lchash vositalari soniga nisbatan)
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Davlat etalonlarining soni

	Xalqaro o'lchov va tarozilar byurosining bazasida qaydlangan O'zbekiston Respublikasi kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlar soni
	Davlatlararo darajada o'tkaziladigan solishtirishlar soni
	O'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimini rivojlantirish maqsadida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining soni
	Ishlab chiqilgan (yangi o'zlashtirilgan) kalibrlash usullarining soni
<b>18.5.</b>	<b>Dastur nomi: To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalariga moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni joriy qilish hamda tashqi bozorlarda yirik savdo omborlarini ijaraga olish xarajatlarining bir qismini qoplash dasturi (PF-2-son, 10.01.2023-y.)</b>
	<b>Dastur maqsadi:</b> To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni joriy qilish hamda tashqi bozorlarda yirik savdo omborlarini ijaraga olish xarajatlarining bir qismini qoplab berish
	<b><i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i></b>
	Amalga oshirilgan eksport hajmi
	<b><i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i></b>
	Ijaraga olingan ofis, savdo va ombor binolarning soni
<b>19.</b>	<b>Raqamli texnologiyalar vazirligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida raqamli ta'limni rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda aholi va yoshlar o'rtasida raqamli bilim va ko'nikmalarni oshirishda yagona davlat siyosatini yuritish
	<b>shundan:</b> <i>rivojlantirish dasturlariga ajratilgan mablag'</i>
<b>19.1.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Yoshlarning IT-sertifikatlarini olish bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash uchun xarajatlar ( <i>VMQ-310-son, 19.05.2021-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Xalqaro IT-sertifikatlarga ega yosh mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash
	<b><i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i></b>
	Yillik o'quv kursini bitirgan xalqaro IT-sertifikatga ega bo'ladigan yoshlar ulushi (14 — 30 yoshgacha)
	Xalqaro IT-sertifikatini olish uchun ariza topshirgan jami yoshlar soni
	<b><i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i></b>
	Yoshlarning xalqaro IT-sertifikatini olish uchun sarflagan xarajatlarini 50 foizgacha, shuningdek, B2 va undan yuqori xorijiy til bilish darajasiga ega bo'lgan yoshlar tomonidan xalqaro IT-sertifikatlarini olish xarajatlarining 100 foizini qoplab beriladiganlar soni (14-30 yoshgacha)
	Yoshlarni IT sohasiga qiziqtirish maqsadida amalga oshirilgan tadbirlar soni
<b>19.2.</b>	<b>Dastur nomi:</b> "Obuna" yagona elektron platformasi orqali bosma nashrlarga obuna qilingan obunalar narxining bir qismini qaytarish (Cashback) xarajatlari ( <i>PQ-294-son, 27.06.2022-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Jismoniy shaxslar tomonidan "Obuna" yagona elektron platformasi va uning mobil ilovasi orqali amalga oshirilgan obuna xarajatlarining bir qismini qaytarib berish
	<b><i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i></b>
	Jismoniy shaxslar tomonidan "Obuna" yagona elektron platformasi orqali obuna qilingan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy, huquqiy, ilmiy-ommabop davriy bosma nashrlar obuna narxining 10 foizini, bolalar uchun mo'ljallangan davriy bosma nashrlar obuna narxining 20 foizini qoplash ulushi
	<b><i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i></b>
	Jismoniy shaxslar tomonidan "Obuna" yagona elektron platformasi orqali obuna qilingan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy, huquqiy, ilmiy-ommabop, bolalar uchun mo'ljallangan davriy bosma nashrlar soni
<b>20.</b>	<b>Adliya vazirligi</b>

	<b>Strategik maqsad:</b> Yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ( <i>jami ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan</i> )
	Notarial idoralarning idoralararo elektron hujjat almashinuvi
	Tuman (shahar) adliya bo'limlari huzuridagi yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan tashkilotlarni qamrab olish darajasi ( <i>qonunchilik hujjatlarida markazlar tomonidan yuridik xizmat ko'rsatilishi belgilangan tashkilotlar soniga nisbatan</i> )
	Ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni
	Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullarini qo'llagan holda optimallashtirish hujjatlari soni
	Kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini oshirish
	Davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish
	Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini qisqartirish
	Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini soddalashtirish
	Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish
	Qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida ularning sonini qisqartirish
	Umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarning ulushini oshirish
	Advokatlar sonini ko'paytirishga erishish
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Davlat xizmatlari markazlarining xizmatidan foydalanuvchilar soni
	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari soni
	Sud ekspertizasining yangi turlarini joriy etish
	Qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni foydalanuvchilarga yetkazib berish va tanishtirish bo'yicha targ'ibot-tashviqotlar o'tkazish (ming birlikda)
	"Litsenziya" axborot tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni
	Davlat xizmatlari markazlarida bepul Wi-Fi hududlar tashkil qilish
<b>21.</b>	<b>Iqtisodiyot va moliya vazirligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini ta'minlash maqsadida fiskal siyosatning barqaror rivojlanishini, davlat qarzining iqtisodiyotdagi ulushi barqarorligini, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini moliyaviy, sug'urta tashkilotlarining sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini, kapital bozorining iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirish hamda budget mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini ta'minlash
<b>21.1.</b>	<b>Iqtisodiyot va moliya vazirligining joriy xarajatlari bo'yicha erishiladigan natijalar</b>
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Konsolidatsiyalashgan budget saldosining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi
	Yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati
	Davlat budjeti daromadlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi
	Davlat budjeti xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi
	Davlat xaridlari jarayonining avtomatlashtirilganlik darajasi ( <i>jami xaridlarga nisbatan</i> )
	"Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida loyihalarni shakllantirish jarayonlarida g'olib deb topilgan mahallalar ulushi ( <i>jami mahalla soniga nisbatan</i> )
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga nisbatan o'sishi

	O‘zbekiston Respublikasi (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati) nomidan va O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo‘yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi
	Jami davlat xaridlarining hajmi
	Davlat qimmatli qog‘ozlarining cheklangan sof hajmi
	Davlat-xususiy sheriklik asosida ishlab chiqilgan loyihalar
21.2.	<b>Dastur nomi:</b> Ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash va joriy faoliyatini moliyalashtirish bilan bog‘liq xarajatlar
	<b>Dastur maqsadi:</b> Iqtisodiyotni zaruriy energiya resurslari bilan ta‘minlash va tabiiy gaz mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning barqarorligini ta‘minlash
	<b>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</b>
	Subsidiya hisobidan qoplanadigan tabiiy gaz hajmi
21.3.	<b>Dastur nomi:</b> Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish xarajatlari ( <i>VMQ-299-son, 23.04.2018-y, PQ-405-son 20.10.2022-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash: tumanlar ma‘muriy chegarasida bo‘lgan shaharcha, qishloq (ovul) bo‘yicha chegaralarni qo‘shni ma‘muriy-hududiy birliklarni ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflash. Yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish: Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralari belgilangandan so‘ng, tumanda ortofotoplanlardan foydalangan holda deshifrovka ishlarini amalga oshirish, tumandagi yer konturlariga takrorlanmas raqamlar berilgan holda yer turlari va maydonlarining konturlar kesimida hisoblangan jadvalini tayyorlash
	<b>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</b>
	Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish
	<b>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</b>
	Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini deshifrovka qilish, xatlovdan o‘tkazish va ularning elektron raqamli xaritalarini yangilash ishlari
22.	<b>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish
	<b>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</b>
	Davlat budjeti daromadlarida soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati
	Davlat budjeti daromadlarida Pensiya jamg‘armasiga tushadigan tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati
	Faol soliq to‘lovchi — yuridik shaxslarning umumiy soliq to‘lovchilardagi ulushi
	Soliq hisobotlarini o‘z vaqtida topshiruvchi faol soliq to‘lovchilar ulushi ( <i>jami soliq to‘lovchilarga nisbatan</i> )
	Soliq qarzdorligining hisobot yili uchun yig‘ilgan soliq tushumlariga nisbati
	<b>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</b>
	Davlat budjetiga tushadigan soliq tushumlari hajmi
	Pensiya jamg‘armasiga tushadigan tushumlar mablag‘lari
	Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning elektron shaklga o‘tkazilish darajasi ( <i>jami soliq to‘lovchilar soniga nisbatan</i> )
	Muddatida topshirilmagan soliq hisobotlarining ulushini qisqartirish ( <i>jami soliq to‘lovchilar soniga nisbatan</i> )
23.	<b>O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishdagi davlat siyosatini va islohotlari natijalarini teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar orqali yoritish va jamiyatga yetkazish
	<b>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</b>
	Teleko‘rsatuvlarning yillik o‘sish sur‘ati
	Radioeshittirishlarning yillik o‘sish hajmi sur‘ati

	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Teleko'rsatuvlarining yillik hajmi
	Radioeshittirishlarning yillik hajmi
	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufidagi jami telekanallar soni
	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufidagi jami radiokanallar soni
<b>24.</b>	<b>O'zbekiston Milliy axborot agentligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, jamiyatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va yangilanishlarni, amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mohiyati, ahamiyati va samaralarini ommaviy axborot vositalarida xolis, izchil va O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini nuqtai nazaridan yoritish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Ijtimoiy tarmoqlarda faol aholi soniga nisbatan O'zAning media sahifalariga obuna bo'lganlar ulushi
	Yillik chop etilgan maqolalarga nisbatan 9 ta xorijiy tilda chop etilgan maqolalarning ulushi
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	O'zA tomonidan tayyorlangan matnli, foto, video va audio materiallarning yillik soni
	O'zA ning rasmiy media sahifalaridagi yillik yangi obunachilari soni
	O'zA tomonidan tayyorlangan video va audio materiallarning media sahifalarida ko'rilganligi
<b>25.</b>	<b>Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Mamlakat aholisi, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va tafakkurida milliy g'oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish
	<i>shundan:</i> <b>rivojlantirish dasturlariga ajratilgan mablag'</b>
<b>25.1.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari (PQ-5039-son, 26.03.2021-y.)
	<b>Dastur maqsadi:</b> Mamlakat miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etadigan fuqarolar ulushi ( <i>jami ijtimoiy faol aholi soniga nisbatan</i> )
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	"oyina.uz" elektron portali va uni ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Facebook, Youtube) rasmiy sahifalarida ko'rishlar soni
	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar-treninglar o'tkazish
	Ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi ijtimoiy roliklar tayyorlash. Targ'ibotchilar foydalanishi uchun slaydlar va taqdimotlar tayyorlash
	Targ'ibot ishlarini tashkil etishga qaratilgan risola, uslubiy qo'llanma, monografiyalar tayyorlash
<b>26.</b>	<b>Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Inson huquqlariga rioya etilishini, fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklari tiklanishini ta'minlash bo'yicha tavsiya berilgan manfaatdor tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar soni
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Inson huquqlari sohasida fuqarolarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida chop etiladigan o'quv, ilmiy-uslubiy va ommabop qo'llanmalar hamda ilmiy-ma'rifiy jurnal soni
	Inson huquqlari sohasida malaka oshirgan davlat organlarining tegishli xodimlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining soni

	“Inson huquqlari” bo‘yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini olgan ilmiy xodimlar soni
<b>27.</b>	<b>O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand aholi qatlamlarining ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash
	<b><i>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</i></b>
	Dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarida yangi o‘rinlarni ochish
	Dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarida sog‘lomlashtiriladigan aholi soni
	Yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilingan dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarini jami oromgohlarga nisbatan ulushi
	<b><i>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</i></b>
	Dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarida mavjud o‘rinlar soni
	Dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari soni
	Qurish va rekonstruksiya qilinadigan dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari soni
<b>28.</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Fanlar akademiyasida iqtidorli yoshlardan yuqori ilmiy darajali kadrlar tayyorlagan holda maqsadli, innovatsion, tijoratlashtirish, tashabbuskor loyihalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini oshirib borish
	<b><i>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</i></b>
	Amaliy loyihalarning fundamental ilmiy tadqiqotlarga nisbatan ulushi
	Indeksatsiya qilinadigan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar sonining ulushi
	Ilmiy darajani olgan tayanch (PhD) doktorantlarning doktoranturani bitiruvchilar soniga nisbatan ulushi
	Ilmiy darajani olgan ilmiy (PhD) doktorantlarning doktoranturani bitiruvchilar soniga nisbatan ulushi
	<b><i>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</i></b>
	Fanlar akademiyasi davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi amaliy tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy loyihalar soni
	Fanlar akademiyasi bo‘yicha ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning umumiy soni
	Fanlar akademiyasida ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash — tayanch (PhD) doktoranturani bitiruvchilar soni
	Fanlar akademiyasida ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash — ilmiy (DSc) doktoranturani bitiruvchilar soni
<b>29.</b>	<b>O‘zbekiston Badiiy akademiyasi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, shaxsiy va ijodiy ko‘rgazmalar uchun keng imkoniyatlar yaratib berish hamda ijodkorlarning badiiy salohiyatini oshirish
	<b><i>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</i></b>
	Festival, biyennale va ko‘rgazmalarga tashrif buyuradigan tomoshabinlar, talaba va o‘quvchilar soni
	Badiiy akademiya tizimidagi oliy ta’lim muassasasi va maktab hamda maktab-internatlarda tasviriy va amaliy sanat, dizayn, haykaltaroshlik va muzey ashyolarini ta’minlash kabi o‘n beshdan ortiq ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talaba va o‘quvchilarning umumiy soni
	<b><i>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</i></b>
	O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog, ishchi va xodimlardan davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar soni
	Buyuk alloma va davlat arboblarning O‘zbekiston Respublikasi va boshqa respublikalarga o‘rnatiladigan haykallari soni
<b>30.</b>	<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish

	<i><b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b></i>
	Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini kengaytirish
	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlab chiqilgan qonunchilik hujjatlari
	Agentlik tomonidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiya holatlari bo'yicha masofaviy monitoring va o'rganishlar o'tkazish
	Davlat xizmatchilari uchun halollik standartlari (etika) va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari bo'yicha o'tkaziladigan treninglar, uchrashuv, konferensiya va seminarlar
	<i><b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b></i>
	Ochiqlik indeksini hisoblash natijalariga ko'ra "qizil" toifadagi har bir davlat organi va tashkilotining faoliyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishga amaliy yordam ko'rsatish
	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash yakunlariga ko'ra "qoniqarsiz" deb baholangan har bir davlat tashkilotining faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatiladigan amaliy yordamlar soni
	"Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish" elektron axborot tizimi joriy etish
<b>31.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Alohida soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni tanqidiy tahlil qilish, isloh qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini tashkil etish, samaradorligini baholash va nazorat qilish
	<i><b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b></i>
	Islohotlarning samaradorligi baholanadigan soha va tarmoqlar ( <i>jami soha va tarmoqlarga nisbatan</i> )
	O'rganiladigan va isloh qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladigan soha va tarmoqlar ( <i>jami soha va tarmoqlarga nisbatan</i> )
	<i><b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b></i>
	Muayyan soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni tanqidiy tahlili bo'yicha kiritilgan ma'lumotlar soni
	Muayyan soha va tarmoqlarni isloh qilish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar soni
	Muayyan soha va tarmoqlarda islohotlarni amalga oshirish uchun tuzilgan loyiha guruhlari (ofislar) soni
	Muayyan soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini baholash va nazorat qilish bo'yicha kiritilgan ma'lumotlar soni
<b>32.</b>	<b>"Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Aholi salomatligini muhofaza qilish va sog'lom oilani shakllantirish
	<i><b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b></i>
	Tibbiy ko'riklar davomida kasallik aniqlangan bemorlardan sog'lomlashtirishga ( <i>respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalariga</i> ) yo'naltirilganlar ulushi
	<i><b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b></i>
	Tibbiy ko'riklardan o'tkaziladigan aholi umumiy soni
	Tibbiy ko'riklar natijasida aniqlangan bemorlar umumiy soni
	Ayollar, o'smirlar va bolalarga oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruzalar soni
	Tibbiy ko'rik o'tkaziladigan qishloqlar va mahallalar umumiy soni
	Tibbiy ko'riklar mobaynida tibbiy-ijtimoiy holati o'rganiladigan oilalar soni
<b>33.</b>	<b>Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga (nogironligi bo'lgan bolalar, yetim bolalar va ijtimoiy-huquqiy xavf guruhiga kiradigan bolalar va ularning oilalari) malakali ijtimoiy, pedagogik-psixologik, tibbiy rehabilitatsiya yordamini ko'rsatish
	<i><b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b></i>

	Pedagogik-psixologik, tibbiy rehabilitatsiya yordamini olgan nogironligi bo'lgan bolalar salomatligidagi ijobiy o'zgarishlar ( <i>jami davolanayotgan bolalar soniga nisbatan</i> )
	Ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam olgan yetim bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvi ko'rsatkichi ( <i>jami davolanayotgan bolalar soniga nisbatan</i> )
	Ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam olgan tarbiyasi og'ir bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvi ko'rsatkichi ( <i>jami davolanayotgan bolalar soniga nisbatan</i> )
	<b><i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i></b>
	Pedagogik-psixologik, tibbiy rehabilitatsiya yordamini olgan nogironligi bo'lgan bolalar soni
	Ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam olgan yetim bolalar soni
	Ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam olgan tarbiyasi og'ir bolalar soni
	Ijtimoiy va maslahat yordami olgan oilalar soni
<b>34.</b>	<b>Milliy antidoping agentligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Sportchilarning musobaqalarda dopingsiz qatnashishlari uchun asosiy huquqlarini o'rgatish, jamoatchilikni va sportchilarni dopingga qarshi kurashga targ'ib qilish
	<b><i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i></b>
	Olimpiya va noolimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya)lar sportchilaridan olingan doping testlar soni
	Xalqaro musobaqalarda doping testlar olish huquqiga ega bo'lgan xalqaro toifadagi doping ofitserlarni Xalqaro test agentligida (ITA) o'qitish
	<b><i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i></b>
	Butun jahon antidoping agentligi kodeksi, xalqaro antidoping standartlariga asoslangan holda Milliy antidoping agentligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan qo'llanmalar, o'quv-uslubiy tavsiyanomalar va boshqa nashrlar
	Ma'lumotlarni to'plash va saqlash uchun mo'ljallangan antidoping ma'muriyatchiligi va menejmenti onlayn tizimi (ADAMS) orqali mamlakat sportchilari haqida to'plangan va saqlangan ma'lumotlar soni
	Sportda doping qo'llanishining oldini olish va antidoping nazoratini amalga oshirish borasida ta'lim dasturlari qatnashchilari soni
<b>35.</b>	<b>Din ishlari bo'yicha qo'mita</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Diniy-ma'rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash
	<b><i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i></b>
	Diniy-ma'rifiy tadbirlarda fuqarolar ishtiroki ( <i>jami ijtimoiy faol aholi soniga nisbatan</i> )
	<b><i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i></b>
	Haj va Umra safariga boruvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish va ularning ziyoratlarini tashkil etish
	Respublikadagi muqaddas qadamjo va ziyoratgoh obyektlari haqida ma'lumot beruvchi nashrlar chop etish
	Diniy mazmundagi materiallar yuzasidan dinshunoslik ekspertizasi xulosalarini tayyorlash
	O'zbekiston va xorijiy davlatlardagi diniy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash
	O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va aholini terrorizm va ekstremizmga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish
	Internet jahon axborot tarmog'ida din omili bilan bog'liq mavzulardagi chiqishlar yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlash
	Diniy soha xodimlarining internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dolzarb mavzulardagi targ'ibot chiqishlarini tashkil etish

	Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal shaxslar tomonidan berilayotgan chiqishlariga qarshi tezkor ilmiy asoslangan aksil targ'ibot (raddiya) tadbirlarini tashkil etish
	Diniy-ma'rifiy soha hamda davlat va jamoat tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish
	Diniy tashkilotlarni (masjid, diniy ta'lim muassasalari) malakali kadrlar bilan ta'minlash jarayonini muvofiqlashtirish
	Diniy soha xodimlari ishtirokida "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi ostida jamiyat uchun dolzarb mavzular hamda ijtimoiy illatlarning oldini olishga yo'naltirilgan ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish
	Diniy o'quv yurtlari qoshidagi Qur'on o'qish kurslarida fuqarolar ta'lim olishini tashkil etish
	O'zbekiston vakillarining (islomshunos va dinshunos olimlar, tadqiqotchilar) mamlakatimiz va xorijda o'tkaziladigan diniy sohaga oid xalqaro tadbirlarda ishtirokini ta'minlash
	Xotin-qizlarni turli ma'naviy tahdid va ta'sirlarga tushib qolishining oldini olish, ularda qat'iy e'tiqod va qarashlarni o'zida mujassam etgan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish
	Davlat va nodavlat teleradiokanallar, gazeta va jurnallar orqali teleko'rsatuv, radio eshittirish, matbuot, davriy nashrlar hamda internet tarmog'ida diniy-ma'rifiy sohaga doir chiqishlarni (brifing, intervyu, matbuot anjumani, maqola) amalga oshirish
	Diniy-ma'rifiy sohada o'tkazilayotgan tadbirlar to'g'risidagi xabar, yangilik va infografikalarni saqlash va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilib borish
	Noislomiy diniy tashkilotlar rahbarlari ishtirokida diniy bag'rikenglik ruhini keng targ'ib qilishga qaratilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish
<b>36.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Mamlakatimiz moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash, muhofaza qilish va avloddan avlodga yetib borishini ta'minlash uchun ularni asrashga doir ishlarni tashkillashtirish hamda moddiy madaniy meros, muzeylar, arxeologiya, madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi sohasida davlat siyosatini amalga oshirish
	<i>shundan:</i> <b>rivojlantirish dasturlariga ajratilgan mablag'</b>
<b>36.1.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxeologik ishlar uchun xarajatlar ( <i>PQ-177-son, 01.06.2023-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Mamlakatimiz moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Mahalliy va xorijiy tashrifchilar oqimini oshirish
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Restavratsiya ishlari amalga oshiriladigan obyektlar soni
<b>36.2.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Davlat muzeylarini rivojlantirish va tiklash uchun xarajatlar ( <i>PQ-261-son, 27.05.2022-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosini yanada boyitib borish va muhofaza qilish, shuningdek, muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularda fond saqlash sharoitlarini yaxshilash
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Davlat muzeylariga tashrif buyuruvchilar soni
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Ta'mirlanadigan muzeylar soni ( <i>jami muzeylar soniga nisbatan</i> )
<b>37.</b>	<b>Ijtimoiy himoya milliy agentligi</b>
	<b>Strategik maqsad:</b> Aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish
	<i>shundan:</i> <b>rivojlantirish dasturlariga ajratilgan mablag'</b>
<b>37.1.</b>	<b>Dastur nomi:</b> Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to'lash dasturi ( <i>hisob-kitobga asosan</i> )

	<b>Dastur maqsadi:</b> Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to'lash orqali oilalarni qo'llab-quvvatlash
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Bolalar nafaqasi ajratilgan kam ta'minlangan oilalar soni
	Moddiy yordam nafaqasi ajratilgan kam ta'minlangan oilalar soni
37.2.	<b>Dastur nomi:</b> Nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqalarni to'lash dasturi ( <i>VMQ-119-son, 23.03.2023-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqalarni to'lash orqali aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	18 yoshgacha (18 yoshgacha OITSGa chalingan shaxsga) bolalikdan nogironlik nafaqasini oluvchilar soni
	18 yoshdan katta I guruh bolalikdan nogironlik nafaqasini oluvchilar soni
	18 yoshdan katta II guruh bolalikdan nogironlik nafaqasini oluvchilar soni
37.3.	<b>Dastur nomi:</b> Mehnatga layoqatsiz va zarur ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga hamda nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga nafaqalarni to'lash dasturi ( <i>PF-74-son, 17.02.2022-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Mehnatga layoqatsiz va zarur ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga hamda nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarni qo'llab-quvvatlash
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Yoshga doir nafaqani oluvchilar soni
	1-guruh nogironlik nafaqasini oluvchilar soni
	2-guruh nogironlik nafaqasini oluvchilar soni
	Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini oluvchi oilalar soni
	Parvarishlash nafaqasini oluvchilar soni
37.4.	<b>Dastur nomi:</b> Bola tug'ilishi uchun beriladigan nafaqalar (suyunchi puli)ni to'lash dasturi ( <i>hisob-kitobga asosan</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Bola tug'ilganda oilalarni bir martalik moddiy yordam ajratgan holda qo'llab-quvvatlash
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Bola tug'ilishi uchun beriladigan nafaqalar (suyunchi puli)ni oluvchilar soni
37.5.	<b>Dastur nomi:</b> Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash dasturi ( <i>PQ-5217-son, 09.08.2021-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Nogironligi bo'lgan shaxslar, ayniqsa, bolalarni rehabilitatsiya qilish, to'laqonli hayot tarzini yuritishiga ko'maklashish hamda imkoniyatlarini oshirish uchun ularni zamonaviy protez-ortopediya moslamalari va rehabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash
	<b>Yakuniy natija ko'rsatkichi</b>
	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan eshitish qobiliyati zaif bolalarga nisbatan bolalarning yaxshilanish darajasi
	Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash orqali hayot tarzini yaxshilashga ko'maklashish darajasi
	Muhtoj shaxslarni, shu jumladan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan nogironligi bo'lgan shaxslar hamda I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni xorijiy texnologiyalar asosida tayyorlangan sifatli zamonaviy oyoq protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash orqali hayot faoliyatini yaxshilash darajasi
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Zamonaviy eshitish moslamalari bilan ta'minlanadigan eshitish qobiliyati zaif bolalar soni
	Zamonaviy elektr yuritmalari nogironlar aravachalari bilan ta'minlanadigan nogironligi bo'lgan shaxslar soni
	Ovozli termometr bilan ta'minlanadigan ko'zi ojiz bolalar va kattalar soni

	Ovozli tonometr bilan ta'minlanadigan ko'zi ojiz bolalar va kattalar soni
	Muhtoj shaxslarni zamonaviy son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari bilan ta'minlash
37.6.	<b>Dastur nomi:</b> Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordam to'lash dasturi ( <i>hisob-kitobga asosan</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Qoraqalpog'iston Respublikasida muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordamni oluvchilar soni
	Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordamni oluvchilar soni
37.7.	<b>Dastur nomi:</b> Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash dasturi ( <i>VMQ-656-son, 25.10.2021-y.</i> )
	<b>Dastur maqsadi:</b> Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish
	<b>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</b>
	Uy-joy bilan ta'minlangan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar soni

\* 2025-2026-yillar uchun rivojlantirish dasturlari va maqsadli indikatorlarining reja ko'rsatkichlari kelgusi yillar uchun Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari doirasida qayta tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qaroriga 8-ILOVA

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-son qarori 8-bandining "a" kichik bandi **uchinchi xatboshisidan** "budjet mablag'lari va" so'zlari chiqarib tashlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli **qarorida:**

a) 9-bandning **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

b) **15-band** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

v) **20-bandda:**

**ikkinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**uchinchi va to'rtinchi xatboshilar** tegishincha ikkinchi va uchinchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3824-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzuridagi Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining namunaviy tashkiliy tuzilmasining **izoh** qismidagi "20 — 25" so'zlari "30 — 35" so'zlari bilan almashtirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3856-son qarori 3-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining taklifiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo'shimcha manbalaridan ajratiladigan mablag'lar".

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "Harbiy-ma'muriy sektorlarni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3897-son qarori 2-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining taklifiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo‘shimcha manbalaridan ajratiladigan mablag‘lar”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son **qarorida**:

a) 4-band “b” kichik bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan har yili 250 milliard so‘m miqdorida ajratiladigan mablag‘lar”;

b) **5-band** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4318-son qarorida:

a) 3-banddagi “Moliya” so‘zi “Iqtisodiyot va moliya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 4-bandda:

“Moliya vazirligi va” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarini xorijiy valyutadagi yillik jamlanma xarajatlar smetalarini ro‘yxatga olishda, ularning chet eldagi bank hisob-raqamlarida yil boshiga qoldiq mablag‘lari hisobga olinadi”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-son qarorining **1-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Ma‘lumot uchun qabul qilinsinki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan, biroq soliq davri davomida yuz million so‘mdan oshmaydigan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi. Bunda soliq davrida yuz million so‘mdan oshgan daromadlar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartib asosida soliqqa tortiladi”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-son qarorining **7-bandida**:

a) **ikkinchi xatboshi** “yo‘naltirsin” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) **uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari talabnomasi asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman (shahar) budjetlarida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘ ajratish yuzasidan tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlariga har chorakda taklif kiritilishini ta‘minlasin”.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-son **qarorida**:

a) 3-bandning **uchinchi xatboshisidagi** “2025” raqami “2023” raqami bilan almashtirilsin;

b) 4-bandning **“b” kichik bandida**:

**to‘rtinchi xatboshidagi** “30” raqami “50” raqami bilan almashtirilsin;

**beshtinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**oltinchi xatboshi** beshtinchi xatboshi deb hisoblansin;

**beshtinchi xatboshidagi** “35” raqami “50” raqami bilan almashtirilsin;

v) **3-ilova** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**2022 — 2023-yillarda ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish  
bo‘yicha reja ko‘rsatkichlari**

T/r	Hududlar nomi	Mahalliy budjetlardan ajratiladigan mablag‘* (mln so‘m)	Shu jumladan ish turlari bo‘yicha						
			Bolalar maydonchalarini qurish va ta‘mirlash		Irrigatsiya tarmoqlarini ta‘mirlash		Yo‘laklarni betonlash		Tashk ti ta‘m ya alm
			soni (dona)	talab etiladigan mablag‘** (mln so‘m)	uzunligi (p/m)	talab etiladigan mablag‘** (mln so‘m)	maydoni (ming kv.m)	talab etiladigan mablag‘** (mln so‘m)	soni (dona)
	<b>Jami</b>	<b>175 542</b>	<b>905</b>	<b>59 042</b>	<b>83 908</b>	<b>17 006</b>	<b>554</b>	<b>64 870</b>	<b>7 196</b>
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9 094	32	2 276	0	0	12	1 378	528
2.	Andijon viloyati	9 666	32	1 860	3 786	3 028	24	3 012	398
3.	Buxoro viloyati	5 682	24	1 182	6 514	1 090	22	3 002	308
4.	Jizzax viloyati	25 928	188	9 330	5 416	824	78	8 910	1 462
5.	Qashqadaryo viloyati	17 550	64	7 560	2 396	590	36	3 966	486
6.	Navoiy viloyati	6 582	34	2 004	4 632	492	20	2 780	116
7.	Namangan viloyati	5 314	38	2 660	630	126	38	2 280	310
8.	Samarqand viloyati	4 204	28	2 030	4 156	832	16	778	88
9.	Surxondaryo viloyati	7 236	44	1 720	6 944	626	16	2 094	364
10.	Sirdaryo viloyati	12 234	60	3 564	546	316	52	4 090	678
11.	Toshkent viloyati	32 852	158	10 692	24 186	4 140	118	15 988	1 206
12.	Farg‘ona viloyati	32 728	142	9 870	24 186	4 838	118	15 988	1 206
13.	Xorazm viloyati	6 472	61	4 294	516	104	4	604	86
<i>Shu jumladan yillar bo‘yicha:</i>									
	<b>2022-yil</b>	<b>87 771</b>	<b>451</b>	<b>29 520</b>	<b>41 953</b>	<b>8 499</b>	<b>276</b>	<b>32 435</b>	<b>3 597</b>
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 547	16	1 138			6	689	264
2.	Andijon viloyati	4 833	16	930	1 893	1 514	12	1 506	199
3.	Buxoro viloyati	2 841	12	591	3 257	545	11	1 501	154
4.	Jizzax viloyati	12 964	94	4 665	2 708	412	39	4 455	711
5.	Qashqadaryo viloyati	8 775	32	3 780	1 198	295	18	1 983	243
6.	Navoiy viloyati	3 291	17	1 002	2 316	246	10	1 390	58
7.	Namangan viloyati	2 657	19	1 330	315	63	19	1 140	155
8.	Samarqand viloyati	2 102	14	1 015	2 078	416	8	389	44

9.	Surxondaryo viloyati	3 618	22	860	3 472	313	8	1 047	182
10.	Sirdaryo viloyati	6 117	30	1 782	273	158	26	2 045	339
11.	Toshkent viloyati	16 426	79	5 346	12 093	2 070	59	7 994	603
12.	Farg'ona viloyati	16 364	71	4 935	12 093	2 419	59	7 994	603
13.	Xorazm viloyati	3 236	31	2 147	258	52	2	302	43
	<b>2023-yil</b>	<b>87 771</b>	<b>450</b>	<b>29 520</b>	<b>41 953</b>	<b>8 499</b>	<b>276</b>	<b>32 435</b>	<b>3 597</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 547	16	1 138			6	689	264
2.	Andijon viloyati	4 833	16	930	1 893	1 514	12	1 506	199
3.	Buxoro viloyati	2 841	12	591	3 257	545	11	1 501	154
4.	Jizzax viloyati	12 964	94	4 665	2 708	412	39	4 455	711
5.	Qashqadaryo viloyati	8 775	32	3 780	1 198	295	18	1 983	243
6.	Navoiy viloyati	3 291	17	1 002	2 316	246	10	1 390	58
7.	Namangan viloyati	2 657	19	1 330	315	63	19	1 140	155
8.	Samarqand viloyati	2 102	14	1 015	2 078	416	8	389	44
9.	Surxondaryo viloyati	3 618	22	860	3 472	313	8	1 047	182
10.	Sirdaryo viloyati	6 117	30	1 782	273	158	26	2 045	339
11.	Toshkent viloyati	16 426	79	5 346	12 093	2 070	59	7 994	603
12.	Farg'ona viloyati	16 364	71	4 935	12 093	2 419	59	7 994	603
13.	Xorazm viloyati	3 236	30	2 147	258	52	2	302	43

\* Mablag'lar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmalari, Toshkent shahar Uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasiga ajratiladi.

\*\* Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida aniqlik kiritilishi mumkin".

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5216-son qarorining 4-bandida:

a) **uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2024-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi uchun ajratilgan mablag'lar tarkibida alohida satrda mablag'lar rejalashtiriladi";

b) quyidagi mazmundagi to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"2024-yildan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga uy-joylarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni hisoblash uchun uy-joylarning bir kvadrat metrining eng yuqori narxi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Statistika agentligi tomonidan hududlar kesimida belgilanadi";

v) **to'rtinchi xatboshi** beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

g) **beshinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Bunda, ta'mirlash va jihozlash bilan bog'liq xarajatlar tegishli tuman (shahar) mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari, "Mehr daftari" jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi hisobidan qoplanadi".

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi

Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-73-son qarori 22-bandining **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2024-yil 1-yanvardan boshlab Soliq qo'mitasi "Soliq ma'lumotlarini qayta ishlash markazi" davlat unitar korxonasini Soliq qo'mitasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin".

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son qarorining **22-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"22. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi hududiy bo'linmalarining talabnomasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti, shuningdek, tuman (shahar) budjetlarida shakllangan qo'shimcha manbalar hisobidan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga mablag' ajratish yuzasidan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublika Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) Kengashlariga har chorakda taklif kiritilishini ta'minlasin".

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-128-son qarori 13-bandining **oltinchi xatboshisidagi** "yanvardan" so'zi "apreldan" so'zi bilan almashtirilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son qarori 12-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2030-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning (vazirlik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalaridan tashqari) budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanadi".

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-405-son qaroriga 2-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**"2023 — 2026-yillarda Kadastr agentligi organlari va tashkilotlarini o'lchash vositalari, zamonaviy kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot va mebel bilan ta'minlashning**

#### ASOSIY KO'RSATKICHLARI

T/r	Nomi	O'lchov birligi	Soni	Rejalashtirilgan summa*** (mlrd so'm)	Shu jumladan, yillar bo'yicha				Moliyalashtirish manbai
					2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil	
1.	Doimiy faoliyat ko'rsatadigan sun'iy yo'ldosh orqali kuzatish stansiyalari (GNSS stansiyalar)	komplekt	80	<b>71,20</b>	-	40,00	-	31,20	Davlat budjeti
2.	Elektron taxometr	komplekt	252	<b>38,87</b>	9,30	-	14,57	15,00	
3.	GPS priyomniklar, jumladan: 1) baza+rover; 2) rover.	komplekt	263	<b>31,50</b>	10,00	-	11,50	10,00	
			231	<b>7,10</b>	2,40	-	2,40	2,30	

4.	GPS (erlarni o'lash uchun)	komplekt	100	<b>7,00</b>	3,00*	2,00**	2,00*	-	Davlat budjeti, Kadastr agentligining budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari
5.	Trassa qidirgichlar	komplekt	20	<b>0,75</b>	0,39*	-	-	0,36*	
6.	Kompyuter	komplekt	1032	<b>13,60</b>	2,50	4,10	3,50	3,50	Kadastr agentligining budgetdan tashqari jamg'armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag'lari
7.	Plotter	dona	9	<b>0,45</b>	0,25	0,20	-	-	
8.	Maxsus avtotransport vositasi	dona	41	<b>10,90</b>	5,00	5,90	-	-	
9.	Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan: 1) o'lash vositalari va texnika bilan jihozlash; 2) mebel bilan jihozlash.	komplekt	69	<b>1,20</b>	1,20	-	-	-	Kadastr agentligining budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari
			2011	<b>3,00</b>	3,00	-	-	-	
10.	1) V1 (70x100) formatdagi ofset chop etish uskunasi; 2) rulondagi qog'ozlarni kerakli formatda kesib beruvchi uskuna; 3) yuqori tezlikda qog'oz kesuvchi uskuna; 4) qog'oz varaqlarini bloklarga yig'ib beruvchi uskuna	komplekt	1	<b>12,70</b>	-	-	-	12,70	Davlat budjeti
			1	<b>1,30</b>	1,30	-	-	-	Kadastr agentligining budgetdan tashqari jamg'armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag'lari
			1	<b>1,50</b>	1,50	-	-	-	
			1	<b>0,80</b>	-	0,80	-	-	
11.	Lidar-skanerli gibrid aerosuratga olish tizimi	komplekt	1	<b>14,90</b>	-	-	14,90	-	Davlat budjeti
12.	Raqamli kartografiya-geodeziya arxivi geofondini yaratish uchun katta hajmdagi	komplekt	1	<b>8,50</b>	8,50	-	-	-	Davlat budjeti

	elektron materiallarni (ma'lumotlarni) saqlaydigan server qurilmasi								
13.	Dasturiy ta'minot (Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni yig'ish, hisobga olish, saqlash, ularga ishlov berish va real vaqt rejimida xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan "Yagona davlat geofazoviy ma'lumotlar fondi" dasturiy ta'minoti ("Geofond" AT)	dona	1	<b>5,00</b>	-	-	-	5,00	Davlat budjeti
14.	A0 formatli planshet skaner, kitob va albomlar uchun A3 formatli maxsus skaner	dona	4	<b>1,50</b>	-	1,50	-	-	Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg'armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag'lari
15.	Mebel	komplekt	10	<b>0,10</b>	-	0,10	-	-	
16.	Kartografik materiallarni saqlash uchun stellaj	dona	100	<b>0,23</b>	-	0,23	-	-	
17.	Dasturiy ta'minot (topografik suratga olish ma'lumotlarini qayta ishlash)	dona	16	<b>0,64</b>	0,40	0,24	-	-	
18.	Dasturiy ta'minot (GPS o'lchash ma'lumotlarini qayta ishlash)	dona	8	<b>0,92</b>	0,50	0,42	-	-	
19.	Kompleks geoaxborot dasturiy ta'minoti (korporativ joylashtirish, ma'lumotlarni boshqarish, vizualizatsiya, fazoviy tahlil qilish, GAT — server)	dona	1	<b>1,00</b>	1,00**	-	-	-	Davlat budjeti, Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg'armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag'lari

20.	GAT dasturiy ta'minoti (GAT ma'lumotlarini tahrir qilishning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish, ko'p foydalaniladigan korporativ geoma'lumotlar bazasini tahrir qilish, maydonda ajratilgan tahrir qilishdan foydalanish, ma'lumotlarni, suratlarni saqlash, sifat nazoratini avtomatlashtirish, skanerlangan xaritalardan fazoviy ma'lumotlarni yaratish va boshqa imkoniyatlarga ega platforma)	dona	18	<b>2,90</b>	-	-	1,40**	1,50*
21.	GAT va masofadan zondlash dasturiy ta'minoti (harakatdagi tasvir xizmatlari, rastr tahlili, ortofotoplan, rasm xostingi, rastr ma'lumotlariga tezkor kirish, ish oqimlari vazifalarini boshqarish va boshqa funksiyalar)	dona	1	<b>0,38</b>	0,38**	-	-	-
22.	GAT platformasi (raqamli xaritalar va shahar rejalarini yaratish va tahrir qilish, masofaviy zondlash ma'lumotlarini qayta ishlash, turli o'lchashlar va hisob-kitoblarni	dona	103	<b>3,00</b>	1,26*	-	0,87**	0,87*

	bajarish, qoplama operatsiyalari, 3D modellarni yaratish, rastr ma'lumotlarini qayta ishlash, raqamli va bosma shaklda grafik hujjatlarni tayyorlash vositalariga ega universal geoaxborot tizimi)								
23.	Raqamli fotogrammetrik tizim (har xil turdagi tasvir tizimlarini qo'llab-quvvatlash, boshqa fotogrammetrik va geoaxborot tizimlari bilan moslikni ta'minlaydigan keng doiradagi almashinuv formatlari, ko'psonli koordinatalar tizimlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'z koordinatalar tizimini o'rnatish imkoniyati, texnologik jarayonning barcha bosqichlarida sifat nazorati, stereo kuzatishning turli usullari, turli xil kiritish vositalarini qo'llab-quvvatlash va boshqa funksiyalar)	dona	39	<b>6,10</b>	3,00*	3,10**	-	-	Davlat budjeti, Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg'armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag'lari
24.	Dron Matrice 600 (teplovizion kamera + LiDar)	komplekt	1	<b>2,40</b>	2,40	-	-	-	Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg'armasi hamda "Geoinnovatsiya

									markazi” DUKning mablag‘lari
25.	Kadastr agentligining hududiy boshqarmalariga berilgan dronlar parkini yangilash uchun uchuvchisiz uchish apparatlari	dona	42	<b>4,30</b>	2,10	1,10	1,10	-	Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg‘armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag‘lari
26.	Geodezik o‘lchash vositalarini ta’mirlash va kalibrlash laboratoriyasini tashkil etish	komplekt	1	<b>9,00</b>	5,20	3,80	-	-	
27.	Planshet	dona	1090	<b>8,00</b>	8,00	-	-	-	Davlat budjeti
28.	Ratsiya	dona	1090	<b>1,00</b>	1,00	-	-	-	
29.	Bodi kamera	dona	1090	<b>3,00</b>	3,00	-	-	-	
	<b>Jami:</b>			<b>274,74</b>	<b>76,58</b>	<b>63,49</b>	<b>52,24</b>	<b>82,43</b>	
	Shundan, budjet mablag‘lari			<b>214,15</b>	<b>49,85</b>	<b>40,00</b>	<b>45,37</b>	<b>78,93</b>	
	Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg‘armasi hamda tizim tashkilotlarining mablag‘lari			<b>60,59</b>	<b>26,73</b>	<b>23,49</b>	<b>6,87</b>	<b>3,50</b>	

\* Kadastr agentligi organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

\*\* Kadastr agentligining budjetdan tashqari jamg‘armasi va tizim tashkilotlarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

\*\*\* Yakuniy narx ko‘rsatkichlari loyiha-smeta hujjatlari, tovarlar (ishlar va xizmatlar) yetkazib berish bo‘yicha belgilangan tartibda o‘tkaziladigan tender (tanlov) natijalari asosida batafsil belgilanadi.

Izoh:

Kadastr agentligi tomonidan 2023 — 2026-yillarda Kadastr agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarni o‘lchash vositalari, zamonaviy kompyuter texnikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta’minot va mebel bilan ta’minlashning asosiy ko‘rsatkichlariga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Kadastr agentligining tizimidagi tashkilotlarga ularning mablag‘lari hisobidan belgilangan o‘lchash vositalari, zamonaviy kompyuter texnikasi, dasturiy ta’minot va mebellar xarid qilish ushbu tashkilotlarning moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi”.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-427-son qarorida:

a) 3-bandning **beshinch** xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) hokimliklari taklifiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlarining qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti, Toshkent shahrining shahar budjeti va tuman (shahar) budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan ajratiladigan mablag‘lar”;

b) 4-bandning **ikkinchi** xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) hokimliklari O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi talabnomasi asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti, shuningdek, tuman (shahar) budjetlarida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan Jamg‘armaga mablag‘ ajratish yuzasidan tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) Kengashlariga har chorakda taklif kiritilishini ta‘minlaydi”.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish hamda birja savdolarini tartibga solish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-430-son qarori 2-bandining **birinchi xatboshisidagi** “2024” raqami “2026” raqami bilan almashtirilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrdagi “Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-443-son qarorining **8-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalar tomonidan avtotransport vositalarini birlashtirish me‘yorlari doirasida elektromobillar va gibridd avtomobillarni 1-ilovaga muvofiq xarid qilishga ruxsat beriladi.

Bunda, mazkur xaridlar davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan sotib olinadigan avtotransport vositasining eng yuqori narxi bo‘yicha o‘rnatilgan cheklovlar hamda ularning yangisiga almashtirish davri talabiga muvofiq amalga oshirilishi shart”.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son qarori 9-bandning **“b” kichik bandi** chiqarib tashlansin.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-171-son **qarorida**:

a) **8-bandda**:

**uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin;

“transport vositalarini “erkin muomalaga chiqarish (import)” bojxona rejimida rasmiylashtiradigan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan utilizatsiya yig‘imining 3 foizi Vazirlikning budjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi”;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“2024-yil 1-iyuldan boshlab pnevmatik rezina shinalar va pokrishkalar uchun utilizatsiya yig‘imining 10 foizi Vazirlikning budjetdan tashqari jamg‘armasiga yo‘naltiriladi”;

b) **5-ilova** 29-pozitsiyasining “Chora-tadbir nomi”ustunida:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Yagona dastur asosida amalga oshiriladigan tadbirlarni yer egalari uchun o‘z mablag‘lari va Sirdaryo viloyatining mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni nazarda tutish”;

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son qarori 13-bandining **ikkinchi xatboshisi** “moliyalashtirish uchun” so‘zlaridan keyin “Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son qaroriga **1b-ilovaning** 21-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-son **qarorida**:

a) **8-band** quyidagi mazmundagi ikkinchi — beshinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlarida ko‘kalamzorlashtirish ishlarining uzluksizligini ta‘minlash maqsadida, belgilab qo‘yilsinki, “O‘zyo‘lko‘kalamzorlashtirish” davlat muassasasining hududiy bo‘linmalarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar:

2024-yil 1-aprelga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasi;

2024-yil 1-apreldan boshlab tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda “O‘zyo‘lko‘kalamzorlashtirish” davlat muassasasining hududiy bo‘linmalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin”;

b) **15-band** quyidagi mazmundagi to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imdan tushadigan mablag‘lar quyidagicha taqsimlanadi:

90 foizi — Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga;

10 foizi — Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga”;

v) qarorga **1-ilovada**:

22-pozitsiya chiqarib tashlansin;

43-pozitsiyaning “Chora-tadbirlar nomi” ustunidagi “5 foiz miqdorida” so‘zlari “(tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida) 5 foiz miqdorigacha” so‘zlari bilan almashtirilsin.

25. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-son **qarorida**:

a) 4-bandning **birinchi xatboshisidagi** “2024” raqami “2027” raqami bilan almashtirilsin;

b) ilovaning **29-bandida**:

quyidagi mazmundagi oltinchi va yettinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, homiylikdan kelib tushgan mablag‘lar tushumi va sarflanishining hisobi alohida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida yuritiladi.

Vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan homiylik mablag‘larini qabul qilish, ulardan foydalanish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakuni bilan ularning rasmiy veb-sahifalarida e‘lon qilib boriladi”;

**oltinchi** va **yettinchi xatboshilar** tegishincha sakkizinchi va to‘qqizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

26. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 250-son **qarorida**:

a) 1-ilovaning **izoh** qismi quyidagi mazmundagi 3-band bilan to‘ldirilsin:

“3. Vazirliklar huzuridagi qo‘mitalar, agentliklar va inspeksiyalar markaziy apparati yuridik xizmat xodimlari uchun mehnatga haq to‘lash razryadlari tegishli vazirlik markaziy apparati yuridik xizmat xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash razryadlaridan bir pog‘ona past miqdorda qo‘llaniladi”;

b) **4-ilovada**:

1-pozitsiyaning “Belgilangan shtatlar miqdori” ustunidagi “8” raqami “20” raqami bilan almashtirilsin;

2-pozitsiyaning “Belgilangan shtatlar miqdori” ustunidagi “5 — 7” so‘zlari “7 va undan ortiq” so‘zlari bilan almashtirilsin.

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-dekabrdagi “Suv xo‘jaligi obyektlari bo‘ylarida ihota va daraxtzorlar barpo etish hamda hududlarni obodonlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1004-son qarori 2-bandining **beshinch xatboshisidagi** “O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari va” so‘zlari chiqarib tashlansin.

28. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori 3-bandining **ikkinchi xatboshisidagi** “2023” raqami “2026” raqami bilan almashtirilsin.

29. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyundagi “Sug‘oriladigan yerlarni shamol eroziyasiga hamda suv xo‘jaligi obyektlarini qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori 4-bandining **beshinchi xatboshisidagi** “respublika budjeti” so‘zlari “yer egalarining o‘z” so‘zlari bilan almashtirilsin.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-oktabrdagi 811-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomning **2-bandida**:

a) **ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar natijasida qo‘shimcha undirilgan summalar bo‘yicha (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining budjetdan tashqari jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lardan tashqari) penyalar hamda soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo‘llanilgan moliyaviy jazo choralari summalarining 20 foizi”;

b) **uchinchi xatboshidagi** “40” raqami “20” raqami bilan almashtirilsin.

31. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomning 59-bandi “b” kichik bandi **uchinchi xatboshisidagi** “25” raqami “15” raqami bilan almashtirilsin.

32. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-apreldagi “Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini jadal joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 260-son qarori 6-bandi “e” kichik bandining **birinchi xatboshisidagi** “LIBOR” qisqartmasi “SOFR” qisqartmasi bilan almashtirilsin.

33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-iyundagi “G‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun utilizatsiya yig‘imini joriy etish to‘g‘risida”gi 347-son **qarorida**:

a) qaror **nomi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ayrim turdagi tovarlar uchun utilizatsiya yig‘imini joriy etish to‘g‘risida”;

b) **1-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. 2020-yil 1-avgustdan boshlab, utilizatsiya yig‘imi miqdorlari va utilizatsiya yig‘imi to‘lanadigan g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalarining turlari va toifalari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2024-yil 1-iyuldan boshlab utilizatsiya yig‘imi to‘lanadigan pnevmatik rezina shinalar va pokrishkalarining ro‘yxati va utilizatsiya yig‘imi miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin”;

v) **ilova** 1-ilova deb hisoblansin;

g) quyidagi mazmundagi 2-ilova bilan to‘ldirilsin:

“Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-iyundagi 347-son qaroriga  
2-ILOVA

### **Utilizatsiya yig‘imi to‘lanadigan pnevmatik rezina shinalar va pokrishkalarining ro‘yxati va utilizatsiya yig‘imi miqdorlari**

<b>Tovarlarning nomi</b>	<b>TIF TN kodi</b>	<b>Tovarlarning vaznidan kelib chiqqan holda har bir kilogrammi uchun utilizatsiya yig‘imi miqdorlari (BHMga nisbatan foizda)</b>
--------------------------	--------------------	---

Yangi shinalar va pnevmatik pokrishkalar rezinadan	4011 10 000, 4011 20, 4011 90 000 0	0,3
Qayta tiklangan yoki ishlatilgan pnevmatik rezina shinalar va pokrishkalar; qattiq yoki yarim pnevmatik shinalar va pokrishkalar, rezinali shinalar va o'ramalentalari.	4012 11 000 0, 4012 12 000 0, 4012 20 000 9, 4012 90 200 0	
		”.

34. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizomning 58-bandi o'n uchinchi xatboshisidagi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish davlat dasturlari, konsepsiyalari va sxemalarining" so'zlari "Budjet tizimi budjetlari hisobidan amalga oshiriladigan qurish-ta'mirlash ishlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalar, konsepsiyalar va sxemalarning" so'zlari bilan almashtirilsin.

35. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 54-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"54. Soliq organlari tomonidan o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvi natijasida qo'shimcha undirilgan summalar bo'yicha penylar hamda soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llanilgan moliyaviy jazo choralari, tegishli ma'muriy huquqbuzarlik uchun qo'llanilgan jarimalar summalarining 80 foizi davlat budjetiga, 20 foizi Soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasiga yo'naltiriladi.

Agar kameral soliq tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida o'tkazilgan bo'lsa, kameral soliq tekshiruvi natijasida ko'p va juda ko'p miqdorda soliqlar va yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlari bo'yicha qo'shimcha undirilgan summalar bo'yicha penylar hamda soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llanilgan moliyaviy jazo choralari, tegishli ma'muriy huquqbuzarlik uchun qo'llanilgan jarimalar summalarining 10 foizi Soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi hamda 10 foizi Departamentning maxsus budjetdan tashqari jamg'armasiga yo'naltiriladi.

Bunda, soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan va o'z vaqtida budjetga o'tkazilmagan soliqlar to'liq davlat budjetga yo'naltiriladi.

Sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish va undirilgan mablag'larni taqsimlash tartibi Soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan kelishgan holda tasdiqlanadi".

36. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarori bilan tasdiqlangan Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati to'g'risidagi nizomning 17-bandi uchinchi xatboshisi "bo'yicha razryadlari va" so'zlaridan keyin "Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning" so'zlari bilan to'ldirilsin.

37. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-iyundagi 358-son qarori bilan tasdiqlangan G'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun utilizatsiya yig'imini undirish, qaytarish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom quyidagi mazmundagi 10<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

"10<sup>1</sup>. Ilgari "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilgan transport vositalari uchun to'langan utilizatsiya yig'imini to'lovchiga qaytarish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

utilizatsiya yig'imini hisoblashda ortiqcha to'langanlik fakti aniqlanganda;

bojxona hududiga olib kirilgan tovarga nisbatan utilizatsiya yig'imini to'lash bo'yicha imtiyoz tiklangan bo'lsa;

“reeksport” bojxona rejimida O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqib ketilgan bo'lsa”.

38. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori bilan tasdiqlangan Qurilish sohasida pudrat tashkilotlarini belgilash bo'yicha elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomning **3 5-bandida**:

quyidagi mazmundagi o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Bunda mazkur 5 foiz chegirmani qo'llash amaliyoti “Tashabbusli budjet” jarayonida g'olib deb topilgan loyihalarga tatbiq etilmaydi”;

**o'n uchinchi** va **o'n to'rtinchi xatboshilar** tegishincha o'n to'rtinchi va o'n beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

39. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 145-son **qarorida**:

a) 6-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman (shahar) budjetlarida shakllangan qo'shimcha manbalar hisobidan “Ayollar daftari” ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xarajatlarini moliyalashtirishga yetarli bo'lgan miqdorda “Ayollar daftari” jamg'armasiga mablag' yo'naltirish yuzasidan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublika Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) Kengashlariga taklif kiritilishini ta'minlasin”;

b) 2-ilova 4-bandining **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog'iston Respublika Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) Kengashlari qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti, tuman (shahar) budjetlari qo'shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag'lar”.

40. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi 206-sonli qarori bilan tasdiqlangan Budjet tizimi budjetlari hisobidan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomning 37-bandi **to'rtinchi xatboshisidagi** “2023” raqami “2024” raqami bilan almashtirilsin.

41. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomning 21-bandi **birinchi xatboshisidagi** “Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisi” so'zlari “Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari” so'zlari bilan almashtirilsin.

42. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 312-son **qarorida**:

a) 2-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog'iston Respublika Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo'shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag'lar”;

b) 1-ilovada:

**4-bandda:**

**ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qoraqalpog'iston Respublika Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo'shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag'lar”;

**beshinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tegishli Qoraqalpog‘iston Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari qarorlariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjeti va Toshkent shahrining shahar budjeti qo‘shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag‘larni, birinchi navbatda, tegishli hududning qo‘shimcha manbalari nisbatan kam miqdorda shakllangan tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga o‘tkazib borish yuzasidan takliflarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga kiritib borsin”;

5-bandning **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari qaroriga asosan tuman (shahar) budjetlari qo‘shimcha manbalari hisobidan har chorakda ajratiladigan mablag‘lar”.

43. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-iyundagi 326-son qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolar ishtirokidagi audit o‘tkaziladigan obyektning aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to‘g‘risida nizomning 13-bandi **ikkinchi xatboshisi** “Bunda,” so‘zidan keyin “eng ko‘p marta tanlangan nazorat obyektlarida tanlashlar soni bir xil bo‘lganda, ularning barchasida nazorat tadbirlari o‘tkaziladi hamda” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

44. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risida namunaviy **nizomda**:

a) 2-bandda:

**ikkinchi xatboshidagi** “mablag‘lari taqsimlovchilari va ular tizimidagi budjet tashkilotlari hamda” so‘zlari “mablag‘larini taqsimlovchilar va” so‘zlari bilan almashtirilsin;

**beshinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ichki audit obyekti — ichki audit tadbiri amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazirlik va idoralarning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari hamda tasarrufidagi budjet tashkilotlari”;

b) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Ichki audit xizmati vazirlik va idoralarning asosiy faoliyati natijalariga javobgar hisoblanmaydi hamda ularga asosiy faoliyat yo‘nalishidan tashqari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan boshqa funksiyalarning yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi”;

v) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Vazirlik va idoralar tomonidan ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom ushbu nizomga muvofiq ishlab chiqiladi hamda ichki audit tadbirlari ichki auditning milliy standartlari va ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasi asosida o‘tkaziladi”;

g) 20-banddagi “yanvardan” so‘zi “apreldan” so‘zi bilan almashtirilsin.

45. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab amalga oshirilgan ichki sayohatlar xarajatlarining bir qismini qaytarib berish tizimini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 484-son qarori 3-bandning “a” **kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan va 2024-yildan boshlab har yili sayohat xarajatlarini qaytarishning navbatdagi bosqichlarini moliyalashtirish uchun Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan mablag‘lar ajratilishi nazarda tutiladi”.

46. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to‘g‘risida **nizomda**:

a) 2-bandning **ikkinchi xatboshisidan** “ular tizimidagi budjet tashkilotlari hamda” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) 10-bandning **beshinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“sertifikatlash jarayonidagi, shuningdek, imtihon komissiyasi va apellatsiya komissiyasi faoliyatida yuzaga keladigan masalalar hamda o‘zaro nomuvofiq holatlarni ko‘rib chiqadi”;

v) 11-bandning **beshinch** **xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“test savollari yo‘nalishlari bo‘yicha mavzularni, adabiyotlar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxatini, test savollarini (javob variantlarisiz) o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi”;

g) **23-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Talabgor O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta‘lim tashkilotlarining yoki qonunchilik hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan chet davlatlar oliy ta‘lim tashkilotlarining oliy ma‘lumotga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo‘lishi lozim”;

d) **25-bandda**:

**to‘rtinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

**beshinch** va **oltinchi xatboshilar** tegishincha to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

e) 30-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“mazkur Nizomning 23-bandi talablariga javob bermaganda”;

j) 42-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“42. Test sinovi Auditorlar palatasi tomonidan tasdiqlangan 100 ta savoldan iborat bo‘ladi”.

47. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-son qarori bilan tasdiqlangan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risida **nizomda**:

a) **9-band** quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, baholash baholovchi tashkilot rahbarining qarori asosida amalga oshiriladi”;

b) 13-bandning **beshinch** **xatboshisida** “tizimidagi” so‘zidan keyin “xavf darajasi yuqori bo‘lgan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

v) Nizomga 3-ilova **nomidagi** “xizmati” so‘zi “obyekti” so‘zi bilan almashtirilsin.

48. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son **qarorida**:

a) 1-ilova 41-bandning **birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“41. Inspeksiya markaziy apparati faoliyati O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti hamda uning hududiy boshqarmalari faoliyati tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi”;

b) 3-ilova 2-bandning “a” **kichik bandida**:

quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“lavozim maoshi”;

**ikkinchi** — **oltinchi xatboshilar** tegishincha uchinchi — yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabdagi PQ-422-son **qaroriga**  
**9-ILOVA**

## **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan ayrim qarorlari**

### **RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 31-oktabrdagi “Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2647-son qarorining **1-bandi**.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori 1-bandning “g” **kichik bandi**.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4486-son qarorining **6-bandi**.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4653-son qaroriga 10-ilovaning **7-bandi**.

5. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi 119-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi nizom 15-bandining **“b” kichik bandi**.

6. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-fevraldagi “Tayyor dori vositalari va tibbiy buyumlarni import qilishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 49-son **qarori**.

7. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 11-maydagi “Import qilishda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 211-moddasining 6-bandida nazarda tutilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar tatbiq qilinmaydigan dorivor vositalar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 132-son **qarori**.

8. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining tayyor dori vositalari va tibbiyot buyumlarini import qilishni tartibga solish bilan bog‘liq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 752-son **qarori**.

9. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyundagi “Sug‘oriladigan yerlarni shamol eroziyasiga hamda suv xo‘jaligi obyektlarini qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarorining **1 va 4-bandlari** hamda **ilovasi**.

Izoh: 1 va 6 — 8 bandlar 2024-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritiladi.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 07/23/422/0994-son; 05.06.2024-y., 06/24/84/0400-son)*